Postindustrial davrda iqtisodiy rivojlanish jadal tus olib, sifat jihatidan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi. Innovatsion jarayonlar taraqqiyotning muhim shartiga aylandi, innovatsiyalar ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylana boshladi, o'zgarishlar sur'ati esa sezilarli darajada tezlashdi. Innovatsion faoliyat tobora asosiy faoliyat maqomiga da'vogarlik qilmoqda hamda korxonalarining strategik rivojlanishi uchun zarur shart sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasining turli xil ta'riflari mavjud bo'lib, ular ko'pincha "yangilik" tushunchasi bilan chalkashtirib talqin etiladi. Shu bois ularning o'ziga xos farqlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasiga ta'rif berishda turli xil yondashuvlar shakllana boshlagan. E.A. Utkinning yondashuviga ko'ra, innovatsiya deganda "ishlab chiqarishga joriy etilgan obyekt" tushuniladi [1]. I. Stepanovning fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi [2]. L. Vodachek va O. Vodachkova innovatsiyalarni "korxonalarining faoliyatining tizim sifatida maqsadli o'zgarishi" deb ta'riflaydilar [3].

"Innovatsiya" tushunchasining yuqoridagi ta'riflari o'zgarishlarning mikroiqtisodiy xususiyatini aks ettiradi va bu yerda ular tashkilot faoliyatini modernizatsiyalash omili sifatida ko'rib chiqilgan. B. Santoning fikriga ko'ra, innovatsiya — bu yuqori sifatli texnologiyalar yaratiladigan texnik hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir.

L.A. Bayev va E.V. Shugurovlarning fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasini aniqlashda quyidagi yondashuvlar mavjud [4]: obyektga ko'ra yondashuv; jarayonli yondashuv; obyekt-naflilik yondashuvi; jarayon-naflilik yondashuvi; jarayonli-moliyaviy yondashuv. Obyektga ko'ra yondashuvga asosan ilmiy-texnik taraqqiyot natijasi — yangi texnika va texnologiyalar innovatsiyalar sifatida namoyon bo'ladi.

Obyekt mezoni quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi: bazis innovatsiyalar — yirik ixtirolarni amalga oshirishdan iborat bo'lib, texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga sabab bo'lgan innovatsiyalar; takomillashtiruvchi innovatsiyalar, ya'ni ilmiy-texnologik siklning barqaror rivojlanish bosqichida ko'p uchraydigan kichik ixtirolarni amalga oshiruvchi innovatsiyalar; soxta innovatsiyalar (ratsionalizatorlik innovatsiyalari) — texnika va texnologiyalarning eskirgan avlodlarini qisman takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, odatda texnik taraqqiyotning sekinlashishiga olib keladi, chunki ular jamiyatga hech qanday samara bermaydi yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Obyekt-naflilik yondashuviga ko'ra, innovatsiya yangi ilmiy-texnik yutuqlarni joriy etish asosida ishlab chiqarilgan yangi iste'mol qiymati sifatida ta'riflanadi. Bu yerda innovatsiyaning naflilik vazifasi ustunlik qiladi, ya'ni jamiyatning yuqori naflilikka ega bo'lgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyati muhim hisoblanadi. Jarayon-naflilik yondashuvi doirasida obyekt-naflilik yondashuvidan farqli ravishda, "innovatsiya" kategoriyasiga yangi amaliy vositani barpo etish, tarqatish va qo'llashning yaxlit jarayoni sifatida qaraladi.

Jarayonli-moliyaviy yondashuv nuqtai nazaridan innovatsiya — bu yangiliklarga sarmoya kiritish, yangi asbob-uskunalar, texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni investitsiyalash jarayonidir. I. Abdurahmonovning fikriga ko'ra, "ilm mablag'ga aylansa, ana shu innovatsiya", deb ta'riflanadi [5].

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda turizmni innovatsion asosda rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar izchil olib borilmoqda, biroq ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish va mavjud ilmiy ishlarga tizimli yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot doirasida ushbu masalani ilmiy asosda kengroq yoritish va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalar ishlab chiqish maqsad qilib olindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekistonda turizmni innovatsion asosda rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyati tahlil qilindi. Mavzu doirasidagi muammolarni chuqur o'rganish, ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalarni ishlab



chiqish maqsadida induksiya va deduksiya usullari, qiyosiy tahlil, shuningdek, xorijiy hamda O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsiya — bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifat jihatidan o'sishi hamda samaradorligini ta'minlash maqsadida joriy etilgan yangilikdir. U insonning intellektual faoliyati, fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorlik faoliyatining yakuniy natijasi hisoblanadi. Yangi iste'molchilik xususiyatlariga ega bo'lgan mahsulotlarni yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifat jihatidan oshirish orqali bozorga tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish innovatsiyaga misol bo'la oladi.

Innovatsiya — foydalanish uchun joriy etilgan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulot (tovar yoki xizmat), jarayon, sotuvlarning yangi uslubi, ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi hamda tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslubdir. "Innovatsiya" atamasi lotincha novatio so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" yoki "o'zgarish" degan ma'noni anglatadi, "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi. Ushbu so'z birikmasi yaxlit holda innovatio tarzida talqin etilganda "o'zgarishlar yo'nalishida" degan ma'noni ifodalaydi. "Innovation" tushunchasi birinchi bor XIX-asr ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lgan.

"Innovatsiya" tushunchasi o'zining yangi ilmiy mazmunini "innovatsion kombinatsiyalar"ni tahlil qilish va iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asr boshlarida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeterning ilmiy ishlarida shakllantira boshladi. Shumpeter XX-asr boshlarida mazkur terminni iqtisodiy fanga ilmiy muomalaga kiritgan dastlabki olimlardan biri hisoblanadi. Keng tarqalgan yangilish qarashlarga qaramay, innovatsiyalar ilmiy kashfiyotlardan farq qiladi.

Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi shundaki, ilm-fan ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirsa, innovatsiyalar bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantiradi. Ixtiro — bu yangi konsepsiyani yaratish bo'lsa, innovatsiya — ushbu ixtironing amaliy ahamiyatini aniqlash va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirishdir [6]. Yangilik esa intellektual faoliyat natijasi bo'lib, yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning muayyan kombinatsiyasini ifodalaydi.

F. Naytning fikriga ko'ra, tadbirkorlikning mohiyati noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish va ushbu qarorlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishni anglatadi. Y. Shumpeter nazariyasida tadbirkor noaniqlikni yuzaga keltiradigan innovatsiyalarni joriy etadi va shu tariqa noaniqlikning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi. Nayt esa tadbirkorlik asosan innovatsiyalarni amalga oshira oladigan shaxslarga xos ekanligini ta'kidlaydi. Shumpeterga ko'ra, o'zgarishlar va innovatsiyalar vaqt o'tishi bilan odatiy holga aylanadi, texnologik taraqqiyot esa yuqori malakali mutaxassislarining faoliyatiga aylanib, ularni oldindan rejalashtirilgan tarzda ishlashga majbur etadi [7].

Muayyan mezonlar asosida innovatsiyalarni guruhlariga ajratish 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Innovatsiyalar tasnifi

№	Mezon	Innovatsiyalarning turi
1	Tarqalganligi bo'yicha	yagona; tarqoq
2	Ishlab chiqarish siklidagi o'rni bo'yicha	xomashyoviy; mahsulotli; ta'minotli
3	Boshqa innovatsiyalar bilan bog'liqligi bo'yicha	ochib beruvchi; inkor etuvchi; o'rni bosuvchi; qaytariladigan
4	Bozorni egallashi bo'yicha	mahalliy; tizimli
5	Yangilikning salohiyati va darajasi bo'yicha	radikal; takomillashtiruvchi; aralash
6	Korxonalar faoliyat yo'nalishi bo'yicha	texnologik; iqtisodiy; marketing; ijtimoiy; ekologik

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda shuni ta'kidlash joizki, aqliy mehnat mahsuli va uni amaliyotga joriy etish huquqlari yig'indisi sifatida ta'riflanadigan intellektual mulk obyektlari innovatsion faoliyatning muhim natijasi sanaladi. Intellektual mulkning xilma-xil turlari mavjud bo'lib, ular korxonalar kapitalining muayyan qismini tashkil etadi. Jumladan, sotib olingan huquqlar, franshiza va gudvill (korxonaning biznes obro'si sifatida tavsiflanadi) shular jumlasidandir. Intellektual mulk nomoddiy aktivlar tarkibiga kiradi. Intellektual mulkning natijasi alohida shaxs yoki ilmiy-tadqiqot guruhining aqliy va ijodiy faoliyati mahsuli hisoblanadi.



O'zbekistonda turizm sohasida mujassamlashgan ulkan salohiyatni ro'yobga chiqarish, uning milliy iqtisodiyotni yuksaltirishdagi rolini sezilarli darajada oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishdagi mavqeyini mustahkamlash mazkur tarmoqni taraqqiyotning an'anaviy modelidan innovatsion modeliga o'tkazishni taqozo etadi. Bu borada mamlakatimizda muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tgan 8-yil davomida mahalliy va xorijiy investorlar ushbu yo'nalishga 6,5 milliard AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritib, 130 ming mehmon o'rni yaratdi. Joriy yilda ularning soni yana 30 mingga ko'payishi kutilmoqda. Parkent tumanidagi "Oltin bel" cho'qqisida xalqaro darajadagi yangi tog'-chang'i zonasi barpo etilmoqda. Fransiyaning "Kurshavel" tog'-chang'i kurorti tog'li hududlarimizda Yevropa standartlariga mos turizm maskanlarini tashkil etishga katta qiziqish bildirmoqda. Bu holat, eng avvalo, mamlakatimizda biznes muhiti va infratuzilma sifati yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi [8]. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda turizmni innovatsion asosda rivojlantirishning ahamiyati va zarurligini mantiqiy dalillar asosida asoslab berish zarur.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-iyundagi "2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son¹ Farmonida bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, unda shunday deyiladi: "Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasini jadal rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi" [9]. Shu asosda davlat rahbari tomonidan 2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi", shuningdek, O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi [10]. Innovatsion taraqqiyotning natijadorligi inson faoliyatining barcha turlari hamda milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini qamrab olish darajasi bilan belgilanadi. Bu borada turizm ham milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida istisno emas. Turizm sohasida innovatsiyalarning paydo bo'lishi va amalda qo'llanilishi ushbu tarmoqda tizimli, o'zaro uzviy bog'liq hamda yuqori ijobiy samara beruvchi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ikkinchidan, turizm sohasiga katta miqdordagi resurslar jalb etilgan bo'lib, ulardan innovatsion asosda samarali foydalanish sohani tez sur'atlar bilan va barqaror rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. 1992-yilda Rio-de-Janeyro konferensiyasida qabul qilingan takliflarga muvofiq, resurslarni to'liq tugatib yubormasdan, kelgusi avlodlar uchun ham imkoniyat qoldirgan holda erishilgan rivojlanish barqaror rivojlanish deb e'tirof etiladi. Demak, barqaror rivojlanishning asosiy g'oyasi qimmatbaho, nodir va noyob resurslardan o'ta tejamkorlik bilan foydalanishga erishishdan iborat. Chunki iqtisodiy resurslarning ayrim turlari qayta tiklanmaydi va ulardan asrab-avaylab foydalanish zaruratga aylanadi. Shu sababli barqaror rivojlanish konsepsiyasini turizm sohasiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm xizmatlariga bo'lgan talabning jadal o'sib borishi sohaga jalb etiladigan resurslar hajmining ham mos ravishda ortib borishini taqozo etadi, bu esa investitsion resurslardan unumli foydalanish muammosining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Uchinchidan, globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi natijasida turizm bozorida raqobat muhiti tobora keskinlashib borayotgani va innovatsion taraqqiyot turistik mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylanib borayotgani kuzatilmoqda. Turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning yuqori daromadlilikidir. Aynan ushbu yuqori daromadlilik va ijtimoiy samaradorlik salohiyati barcha mamlakatlarning turizmni jadal rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirmoqda. Natijada innovatsiyalar turistik xizmatlar bozorida turoperator va turagentlarning mavqeyini mustahkamlash hamda raqobatbardoshligini oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

To'rtinchidan, O'zbekistonda turizmni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish zarurati mazkur tarmoqni yanada jadal rivojlantirish va mavjud turistik salohiyatdan samaraliroq foydalanish imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi. Jahon turistik bozoridagi mavqeyini mustahkamlash yo'lida soliq va byudjet siyosatini takomillashtirish, huquqiy-me'yoriy bazani yanada rivojlantirish, turistik xizmatlar sifatini oshirish, narx siyosatini optimallashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsion resurslarni keng jalb etish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarga kompleks yondashuv turizm sohasining barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, dunyo mamlakatlarida aholi real daromadlarining barqaror o'sib borishi va iste'mol tarkibida xizmatlar ulushining ortishi natijasida turistik xizmatlarga, ayniqsa ularning sifatiga bo'lgan talabning dinamik o'sishi ham tarmoqda innovatsion faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi.

Oltinchidan, innovatsiyalarni keng qo'llash turistik korxonalar va tashkilotlar uchun yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega. Xususan, tashkiliy innovatsiyalar (mehnatni ilmiy tashkil etish, innovatsion menejment) jismoniy mehnatni yengillashtirish, ishchi-xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va qo'l mehnati ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Texnologik innovatsiyalar esa xodimlar malakasini oshirish, mehnat unumdorligini ko'paytirish, ish haqi daromadlarini oshirish hamda resurslarni tejash orqali korxonaning yalpi daromadi va foydasini ko'paytirish imkonini beradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-iyundagi "2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-6102462>



Yuqorida ta'kidlanganidek, innovatsiyalar jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi va amalda foydani ko'paytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi hisoblanadi. Turistik faoliyat murakkab va ko'p qirrali bo'lib, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Keskin raqobat sharoitida faoliyat yuritayotgan turistik korxonalar yuqori sifatli innovatsion turistik xizmat va mahsulotlarni yaratish, yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish, tannarxni kamaytirish hamda iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish orqaligina bozordagi mavqeyini saqlab qolishi va mustahkamlashi mumkin.


Shu sababli turizm sohasi innovatsiyalardan oqilona foydalanish orqali inson faoliyatining eng yuqori daromad keltiruvchi tarmoqlaridan biri sifatidagi mavqeyini saqlab qoladi. So'nggi yillarda rivojlangan G'arb mamlakatlarida innovatsion jarayonlar ilm-fan va bilimlarning kuchli ta'siri ostida jadal rivojlanib bormoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining yangiliklarni yaratish va amaliyotga joriy etishdagi roli tobora ortib bormoqda. Bu holat innovatsion jarayonlarning tarmoqli integratsion modelini (Systems integration and networking model) qo'llashni taqozo etadi va xalqaro tajribada bandlik ko'rsatkichlarining yildan-yilga oshib borayotganligini ko'rsatmoqda (2-rasm). Ushbu modelda investitsiyalar innovatsion jarayonning barcha bosqichlarida integratsiyalashgan ishtirokchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishi lozim. Shu bois turizm sohasida rivojlangan ayrim davlatlarda turizm va bandlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadga muvofiq deb topildi.

2-jadval. 2020–2024-yillarda mamlakatlarning turizm sohasidagi bandlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi[11]

№	Mamlakatlar	Turizm sohasida band bo'lgan aholi soni (mln. kishi)			Turizm sohasidagi band aholining jami band aholi sonidagi ulushi (%)		
		2020	2024	o'zgarishi, %	2020	2024	o'zgarishi, %
1	Fransiya	2,4	2,6	108,3	8,6	9,0	104,6
2	Meksika	5,5	6,0	109,0	10,8	10,9	100,9
3	Ispaniya	2,3	2,5	108,6	11,9	12,7	106,7
4	Turkiya	2,1	2,4	114,2	8,0	8,4	105,0
5	Italiya	2,4	2,6	108,3	10,6	11,6	109,4
6	AQSh	9,7	10,5	108,0	6,6	6,9	104,5
7	Gretsiya	0,7	0,8	114,2	18,3	19,9	108,7
8	Avstriya	0,4	0,4	100,0	10,3	10,2	99,0
9	Germaniya	5,0	5,1	102,0	11,3	11,4	100,8
10	BAA	0,5	0,5	100,0	9,7	10,6	109,2

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan Gretsiya va Turkiya davlatlarida turizm sohasida band bo'lgan aholi soni boshqa mamlakatlarga qaraganda yuqori sur'atda, ya'ni 14,2 % ga oshgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunga mutanosib ravishda, mazkur mamlakatlarda turizm sohasida band aholining jami band aholi sonidagi ulushi ham mos ravishda 8,7 % va 5,0 % ga oshgani ijobiy holat sifatida baholanadi. E'tiborli jihati shundaki, butun jahonda yuz bergan epidemiologik vaziyatdan so'ng yuqori turistik salohiyatga ega Fransiya, Italiya va Germaniya davlatlarida bunday yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmagan.


Tadqiqot davomida o'rganilgan mamlakatlarga tashrif buyurgan sayyohlar soni tahlil qilinganda, 2024-yilda eng ko'p sayyoh tashrif buyurgan davlatlar sifatida Fransiya (66,6 mln kishi) va Meksika (38,0 mln kishi) ajralib turgani, eng kam ko'rsatkichlar esa Germaniya (21,8 mln kishi) va BAA (17,9 mln kishi) hissasiga to'g'ri kelgani aniqlandi.



1-rasm. 2020–2024-yillarda mamlakatlarga tashrif buyuruvchilar sonining o'zgarishi, mln kishi [12]

Biroq tashrif buyuruvchilar sonining o'tgan yilga nisbiy o'sish sur'atlari tahlil qilinganda, eng katta ijobiy o'zgarish Turkiya va Gretsiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgani kuzatiladi. Xususan, 2020–2024-yillar davomida Turkiyaga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2,8 baravar, Gretsiyaga tashrif buyurgan sayyohlar soni esa 4 baravar oshgan.

Shuningdek, 2024-yilda turizm sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Gretsiya, Turkiya va Ispaniya davlatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Fransiya, BAA, Meksika va AQShda qayd etilgan. Biroq 2020–2024-yillar davomida turizmning YaIMdagi ulushi eng yuqori sur'atlarda o'sgan davlatlar sifatida Gretsiya, Italiya va Turkiyani ko'rsatish mumkin.



2-rasm. 2020–2024-yillarda ayrim mamlakatlarda turizmning mamlakat YaIMdagi ulushi, % [13]

Tadqiqot natijalari hozirgi kunda turizm sohasida innovatsiyalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar mavjudligini ko'rsatdi. Kelgusida O'zbekistonda turizm sohasida innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini kuchaytirish va ushbu tarmoqdagi rolini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

– tarmoqda va uning tarkibidagi korxonalarda amalda joriy qilingan innovatsiyalarning rolini sezilarli darajada oshirish;



- innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishda malakali mutaxassislarni faol jalb etish;
- turizm sohasida innovatsion faoliyatni boshqarishda mazkur faoliyatning asosiy prinsiplari — tizimlilik, xavfsizlik, dolzarblilik va ilmiylikka qat'iy amal qilish [14];
- turizm sohasida innovatsion jarayonlarni jadallashtirishda investitsion resurslarning rolini keskin oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida umumiy xulosa shundan iboratki, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish sur'atlarini konsepsiyada belgilangan ko'rsatkichlar darajasiga yetkazish sohada investitsion va innovatsion yo'naltirilgan faol iqtisodiy muhitni shakllantirishni taqozo etadi. Aynan shunday sharoitda turizm sohasida mavjud ulkan salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish hamda uni mamlakat va uning alohida mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim multiplikatoriga aylantirish mumkin bo'ladi. Turizmning investitsion konsepsiyasini izchil amalga oshirish mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlar oqimini sezilarli darajada oshiradi, buning natijasida aholi daromadlari ko'payadi va qo'shimcha yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Takliflar. O'zbekistonda turizmni innovatsion asosda rivojlantirish, bizning fikrimizcha, quyidagi istiqbolli natijalarga erishish imkonini beradi:

- birinchidan, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida turizm iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan istiqbolli tarmog'i sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning samarali vositasiga aylanadi;
- ikkinchidan, turizm industriyasi milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (savdo, transport, umumiy ovqatlanish, aloqa, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, qurilish va boshqalar) rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatib, milliy iqtisodiyotda sezilarli multiplikativ samara yuzaga keltiradi;
- uchinchidan, turizm sohasi ijtimoiy muammolarni hal etish maqsadida investitsion mablag'larni jalb etish orqali qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- to'rtinchidan, xalqaro munosabatlarni kengaytirish hamda investitsiyalarni faol jalb etish orqali tashqi savdo balansini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2018-yil 21-sentabr. [Elektron resurs]. – Kirish yo'li: <https://lex.uz/docs/3913188>
2. E.A. Utkin. Upravleniye kompaniyami. Moskva, 1997. – 304 s.
3. Stepanova I.P. Innovatsionnyy menedjment. Uchebnik. 2014.
4. L. Vodachek, O. Vodachkova. Strategiya upravleniya innovatsiyami na predpriyatii. Moskva: Ekonomika, 1989. – 167 s.
5. L.A. Bayev. Sistemnyy podxod k vyyavleniyu innovatsiy. – 34 s.
6. <https://kun.uz/innovation-rivojlanish-vaziri-bilan-eksklyuziv-suhbat>
7. <https://www.terabayt.uz/post/innovatsiya-tushunchasi-haqida>
8. I.N. Shumpeter. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. Moskva: Progress, 2010. – 344 s.
9. <https://parliament.gov.uz/news/turizmni-lokomotivga-aylantirish-investitsiya-jozibadorligini-oshirish-istiqbollari-belgilandi>
10. O'sha manba.
11. <https://wttc.org/research/economic-impact> (murojaat qilingan sana: 2025-05-14, soat 22:19)
12. <https://wttc.org/research/economic-impact> (murojaat qilingan sana: 2025-05-14, soat 22:19)
13. <https://wttc.org/research/economic-impact> (murojaat qilingan sana: 2025-05-14, soat 22:19)
14. Abulyan Yu. I. Osobennosti innovatsiy v turizme // Ekonomika. Pravo. Pechat. Vestnik KSEI. – 2013. – № 3. – S. 241–250.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
